

TINISH BELGILARIDA IFODALANGAN FONOGRAFIK USLUBIY VOSITALAR*Haydarov Anvar Askarovich**Buxoro davlat universiteti ingliz tilshunosligi kafedrasi professori**<https://doi.org/10.53885/edires.2024.03.1.011>**Sattorova Shaxrizoda**1-bosqich magistranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi punktuatsion belgilar, ularda ifodalangan uslubiy xususiyatlar misollar asosida yoritilgan. Muayyan til nutqida uning vazifasi, tinish belgilarining turlari, qaysi o'rinnarda va qaysi tartibda qo'llanilishi haqida so'z boradi. Ayniqsa, ko'p nuqta va tirening qo'llanilishiga oid ma'lumotlar misollar yordamida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: fonostylistika, grafik stilistika, fonografiya, ko'p nuqta, badiiy matn, punktuatsiya, ellipsis, ishoraviy sinonimiya.

ФОНОГРАФИЧЕСКИЕ СТИЛИСТИЧЕСКИЕ ПРИЕМЫ ВЫРАЖЕННЫЕ В ЗНАКАХ ПУНКТУАЦИИ*Хайдаров Анвар Аскarovич**Профессор кафедры английского языкоznания Бухарского государственного университета**Сатторова Шахризода**студент 1 курса магистратуры*

Аннотация. В этой статье описываются знаки препинания в английских и узбекских языках, и характеристики, методологические особенности, выраженные в них на основе примеров. Определенная языковая речь говорит о том, какие виды пунктуации следят и в каком порядке. Информация анализируется с помощью примеров, особенно об использовании многоточие и приложений для костей.

Ключевые слова: фоностилистика, графическая стилистика, фонография, многоточие, художественный текст, пунктуация, многоточие, символическая синонимия.

PHONOGRAPHIC STYLISTIC DEVICES EXPRESSED IN PUNCTUATION MARKS*Haydarov Anvar Askarovich**Professor of the Department of English Linguistics of Bukhara State University**Sattorova Shakhriyozda**1st year student of Master's degree*

Annotation. This article describes punctuation marks and their stylistic features expressed based on examples. It discusses punctuation marks according to their function, types and usage. The information is analyzed through examples, especially the use of multiple dots and dash.

Keywords: phonostylistics, graphic stylistics, phonography, multi dots, literary text, punctuation, ellipsis, symbolic synonymy.

Kirish. Jahon tilshunosligida fonetika va stilistika fanlari kesishuvida yuzaga kelgan fonostylistik va grafostylistik vositalarning zamonaliviy yondashuvlar asosida o'rganishga alohida e'tibor berilmoqda. O'zbek olimlari ham turli nazariyalarga asoslanib, turli xil tinish belgilarining ko'p o'rinnarda har xil ma'nolarni ifodalashi yoritib berilgan.

Dolzarbligi. Grafika va punktuatsiya bo'yicha yetarlicha ishlar amalga oshirilgan, ammo ular qo'llanilishining pragmatik shartlanganligini ikki noqardosh tillarda qiyosiy-tipologik o'rganish muhim vazifalardan hisoblanadi. Punktuatsiya tilning sintaktik qurilishi bilan uzviy bog'liq bo'lib, yozma nutqni to'g'ri, ifodali, aniq bayon qilishda, uning uslubiy ravonligini, tez tushunilishini ta'minlashda muhim vositadir. O'z navbatida, muayyan tildagi punktuatsiya an'analarining mustahkamlanishi va takomillashuvida taniqli yozuvchilarining ijodi hamda ularning ijodida tinish belgilarining qo'llanish

qidalarini belgilovchi va tartibga soluvchi omillar katta ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar sharhi. Hozirgi o'zbek punktuatsiyasining shakllanishi, rivoji, uning o'rganilishi A. Fitrat, S. Ibrohimov, H. G'oziyev, O. Usmon, G'. Abdurahmonov, K. Nazarov va boshqa tilshunoslarning nomi bilan bog'liq. Ma'lumki, tinish belgilari har bir til uchun yozma nutqni idrok etish va fikrni boshqalarga tushunarli tarzda yetkazishning muhim vositasi hisoblanadi. Ayniqsa, muayyan so'z gapning tarkibida yoki matnda joylashuvi punktuatsiyaning mavjud bo'lishi yoki bo'lmashligiga bog'liq.

Tahlil va natijalar. Semantik o'zgarishlarni ifodalash xususiyatiga ega bo'lgan hollarda tinish belgisining matn mazmunini anglash vositasi ekanligi yaqqol namoyon bo'ladi. "Shu bois A.P.Chexov 1888-yil 13- fevralda N.A.Xlopkovga yozgan xatida tinish belgilarini "yozma nutqni o'qish notalarini" deb atab, mohiyatan musiqiy notalariga o'xshatgan edi ". Punktuatsiya (lot. punctum -nuqta; kichkina dog') alifboden tashqari bo'lgan grafik belgilari (tinish belgilari) tizimi bo'lib, grafika va orfografiya (imlo) bilan birgalikda yozma tilning asosiy vositalarini tashkil etadi. Punktuatsion tizim hozirgi ma'no va ko'rinishda G'arbiy Yevropa tillari yozuvlarida XV-XVI asrlarda, rus yozuvida XVIII asrda, o'zbek yozuvida esa XIX asrning 2-yarmida paydo bo'lgan. Hozirgi o'zbek punktuatsiyasi quyidagi tinish belgilardan iborat: vergul, ikki nuqta, ko'p nuqta, nuqta, nuqtali vergul, so'roq belgisi, tire, undov belgisi, qavs, qo'shtirnoq. Ingliz tili punktuatsion tizimida apostrof va defis ham tinish belgisi hisoblanadi. Tinish belgilari muayyan tilda yozma nutqni to'g'ri, ifodali, mantiqli bayon qilishda, uni ixchamlashda, yozma nutq qismlarining o'zaro mantiqiy, grammatic munosabatlarini ko'rsatish uchun xizmat qiladigan muhim grafik vositalardir. Tinish belgilari markaziy, asosiy belgilar tizimiga (harflar va tinish belgilari) mansub bo'lib, u qo'shimcha, yordamchi belgilar tizimidan (raqamlar, turli fanlarga oid ilmiy belgilar, bosmaxona belgilari) ma'lum jihatlari bilan farq qiladi. "Tinish belgilarini qo'llash usuli va tartibi punktuatsiyaning mantiqiy grammatik, uslubiy va differensiatsiya (farqlash) prinsiplari asosida belgilanadi". Tinish belgilari muayyan fikrni ta'kidlash, emotsionallikni kuchaytirish, muhim jihatni ajratib ko'rsatish usulidir. Maxsus punktuatsion belgi – ko'p nuqta yordamida badiiy matnda sukut (jim qolish) usuli hosil qilinadi. Masalan, Tohir Malikning "Erkin" hikoyasiga diqqat qaratilsa, unda eski tuzum davrida taqiqlangan kitoblarni izlab kelgan mas'ul idora xodimlaridan ularni yashirib qo'ygan xonardon sohiblari ikkilanib, tutilib gapirishi ham yozma nutqda ko'p nuqta yordamida ifodalanadi.

Kitoblar qani deyapman?!

Ularni...ularni yoqib yuborganmiz.

Yoqib yuborganmiz? Nimaga?

Shu...nimaydi?

Yoki nutqda biz ba'zan turli sabablarga ko'ra gaplarni tugallanmagan holda qoldiramiz. Ehtimol, biz nima demoqchi bo'lganimizni unutgan bo'lamiz yoki tinglovchilar nima deyishimizni allaqachon bilishadi, shuning uchun buni aytishimiz shart emas. Yozuvda bu hodisa ellipsis bilan ifodalanadi. Gap yoki iqtibos oxirida ellipsis kelsa, bu so'zlovchining nutqi tugallanmaganligini bildiradi va bu yozuvda ko'p nuqta orqali ifodalanadi.

Would you like sugar for your coffee, or . . .

Tinish belgilardan biri tiredir. Tire turli o'rnlarda turli xil ma'nolarni ifodalash uchun ishlataladi. Masalan, ega va kesim orasida ta'kidni kuchaytirish uchun u, bu, mana bu kabi ko'rsatish olmoshlari qo'llanilganda, ular orasida tire ishlataladi.

Davlat – bu hammamiz, Davlat – bu hech kim. (E. Vohidov)

Ayrim so'zlar yoki gaplar izohlansa, ular o'rtasida tire qo'yiladi.

Men – Valiyev Mahmud, 1954-yilda Toshkentda tug'ilganman.

"Ularning hammasi xoh yosh, xoh qari – firibgar, zolim". (Oybek)

Tinish belgilari yozma matnning tarkibiy va uslubiy jihatlarini to'g'ri belgilash uchun xizmat qiladi. Masalan:

Men opamning jildidan qalin kitobni – Qur'on bo'lsa kerak – olib, pala-partish varaqlayman. (Oybek)

Bunda kirish gap qo'sh tire vositasida ajratilgan. Ma'lumki, kirish so'zlar doimo vergul bilan ajratilib, ba'zi hollarda qavsga olinadi. Yuqorida misolda qo'sh tire vergul o'mida qo'llangandir. Demak, bunda qo'sh tire qo'shimcha vazifani, ya'ni uslubiy vazifani bajargan. Tinish belgilarining bunday birining o'mida ikkinchisining qo'llanishi ishoraviy sinonimiyani hosil qiladi. Gapning ajratilgan bo'laklari vergul ham tire vositasida, kiritma qurilmalar tire ham qavs vositasida ajratiladiki, bular ham ishoraviy sinonimiyaning ko'rinishlaridir.

Agar tire gap oxirida kelsa nutqning bo'linganligini bildiradi.

"I got the guys at the Troc to pick it up on Clerkenwell Road. They tracked—"

"You got the guys—"

"Yeah yeah. Catherine got the guys at the Troc to pick them up." (Mick Herron's Dead Lions)

Xulosa. Yozuv madaniyatini shakllantirish va takomillashtirishda punktuatsiyaning - tinish belgilarining alohida ahamiyatga ekanligini qayd qilamiz. Har bir punktuatsion belgi o'ziga xos uslubiy vazifani bajaradi. Yuqoridagi ko'p nuqta va tire tahlilidan, shu soha mutaxassislarining ilmiy ishlariga asoslangan holda, ularning tarixi, ishlatilish o'rinnlari va shu o'rinnlarga mos stilistik funksiyalarini bajarish xususiyatlari ega ekanligi misollar orqali taxmin qilinganligi bilan xarakterlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. B.M. Baxriddinova, Zamonaviy o'zbek punktuatsiyasi asoslari. Monografiya. –Toshkent: Akademnashr, 2015. – 64 b.
2. D. To'rayeva, O'zbek, rus va ingliz tillarida punktuatsiyani qo'llashning umumiy jihatlari, Yangi O'zbekiston pedagoglari axborotnomasi, 2023, - 58 b.
3. K. Nazarov, O'zbek tili punktuatsiyasi. – T.; "O'qituvchi", 1976, 1 - 4 b.
4. N. Mahmudov, A. Madvaliyev, N. Mahkamov, D. Andaniyozova, O'zbek tili me'yorlari (punktuatsiya). – T.; Zamin nashr, 2021. – 232 b.
5. G'. Abdurahmonov, Punktuatsiya o'qitish metodikasi, T.; 1968, - 184 b.
6. Sh., Shoabdurahmonov, O'zbek tilida punktuatsiya. – T.; 1955, - 58–61 b.
7. A. Haydarov, Grafik vositalarning uslubiy xususiyatlari, UrDU avtoreferati, 2021. - 60 -72 b.